Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 3 (2024) · “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish tendensiyalari” mavzusidagi respublika il...

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Основы менеджмента: учебное пособие. / Л.В. Плахо ва, Т.М. Анурина, С.А. Легостае ва и др.- М.: КНОРУС, 2009.
2. О.С. Виханский Стратегическое управление / М., Гардики, 2002.
3. Р.С. Галькович, В.И. Набоков Менеджмент / Пермь, 2002.
4. Н.Қ.Йўлдошев, О.С.Қозоқов Менежмент / Т, “Фан” 2004.
5. Н.Қ. Йўлдошев, М.Р. Болтабоев, О.Қ. Рихсимбоев, Б.О. Ғаниев Стратегик менежмент / ТДИУ 2003.

MENEJMENT VA UNING TASHKILIY TAMOILLARI

Umarova Feruzabonu Toshmamat-Qizi
TDIU, Andijon Fakulteti “Menejment” Yonalishi Talabasi
E-mail:feruzabonuumarova9@gmail.com

Ishlab chiqarish jarayoninning asosiy elementi bo’lib boshqaruv jarayoni yoki menejment tizimi hisobdanadi.

Ushbu tizimning shakllanish va shakllantirish usullarini bilish xar bir mutaxassisning vazifasidir.Maqolamizda menejment va uning tashkil etish usullari haqida fikr bildiramiz.

Menejment – ko’plab tarkibiy qismlar, ularning xususiyatlari va tomonlariga ega bo’lgan murakkab, ko’p o’lchamli hodisa hisoblanadi.

Menejmentning aniq maqsadga qaratilganligi shu bilan belgilanadiki, u asosiy vazifa sifatida foyda olishga yo’naltirilgan. Menejmentning asosi sifatida turli xildagi ob’ektlarni boshqarish to’g’risidagi fanlar, xususan: kibernetika, tizimlar umumiy nazariyasi, operatsiyalarni tadqiq etish, tarkibiy-funktsional tahlil, shuningdek ishni tashkil etish va personalni motivatsiyalash muammolarini ko’rib chiquvchi boshqaruv nazariyasi ishtirok etadi.

Boshqaruv faoliyatining barcha tomonlari ob’ektiv tarzda o’zaro bog’langan. Shuning uchun qandaydir kichik tizimdagi har qanday o’zgarishlar barcha boshqa kichik tizimlardagi tegishli o’zgarishlarni keltirib chiqaradi. Masalan, personalda zarur ishchanlik xususiyatlarining mavjud emasligi funksiyalarning sifatsiz bajarilishiga, samarasiz usullarning qo’llanilishiga, oqilona boshqaruv tamoyillariga amal qilinmaslikka olib keladi. Natijada maqsadlar ma’lum ma’noda amalga oshmay qoladi.

Menejment nazariyasini bilishning bir qancha bosqichlari mavjud bo’lib, ular quyidagilardir.

Muvaffaqiyatli menejment muvaffaqiyatli boshqaruvni amalga oshirish istagiga ega bo’lish nazariyani amaliyotda qo’llay olish boshqarish shijoatiga, qat’iyligiga ega bo’lish imkonini beradi. Biroq, mazkur o’ziga xos aqliy ishning ko’p qirrariligi uning asosiy belgilarini ochib berishga imkon bermaydi.

“Boshqaruv” tushunchasining ushbu faoliyatning faqat alohida tomonlarini, jihatlarini aks ettiruvchi 300 ga yaqin turli xil ta’rifi mavjud.

Published: 17.05.2024

Cite this article: Umarova Feruzabonu Toshmamat qizi (2024). Menejment va uning tashkiliy tamoillari. Emro Science and Education, 1(3). https://journal.emro.uz/public/maqola/109

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Muvaffaqiyatli menejment menejerlarga bog’liq bo’lgan to’rtta asosiy omilning mavjud bo’lishini nazarda tutadi.

Boshqaruv faoliyatida maqsadlar ushbu faoliyatning tizimni hosil qiluvchi omili hisoblanadi.

Maqsad – insonlar faoliyatining istalgan (ko’ngildagi) natijasi. Har qanday tashkilot o’z faoliyatining sohasiga xos bo’lgan ko’plab maqsadlarga ega.

Menejmentda maqsad, o’zining asosiy tizimni hosil qiluvchi funksiyasidan tashqari quyidagi funksiyalarni ham bajaradi:

1. Maqsadlarda tashkilot menejmentining falsafasi, uning faoliyati konsepsiyasi va rivojlanish konsepsiyasi ifodalanadi;

2. Maqsadlar tashkilotning barcha xodimlari uchun faoliyatning asosiy masalalari bo’yicha yagona ko’rsatmalar rolini bajaradi va bu bilan jamoani mustahkamlaydi hamda insonlarni aniq maqsadni ko’zlab harakat qiluvchi hamfikrlar guruhiga birlashtiradi;

3. Maqsadlar firmalar, ularning bo’linmalari, xizmatlari va alohida xodimlari faoliyatini baholash mezonlari hisoblanadi.

Maqsadlar muayyan talablarga javob beradi, shuningdek ular:

1. Davlat va uning atrofidagi mavjud iqtisodiy tizim sharoitida erishiladigan bo’lishi;
2. Firmaning imkoniyatlaridan kelib chiqib real bo’lishi;
3. Firma personalining xususiyatlari nuqtai nazaridan amalga oshiriladigan bo’lishi;
4. Muayyan bo’lishi, ya’ni miqdoriy ko’rsatkichlar bilan ifodalanishi;
5. Moslashuvchan, ya’ni tashkilot faoliyatining tashqi va ichki sharoitlari ta’siri ostida o’zgarishga qodir bo’lishi;
6. Tashkilotning barcha maqsadlari o’zaro monand uyg’unlashishi, ularni amalga oshirish jarayonida personal harakatlarining muvofiqligini ta’minlashi, yaxlit tizimni o’zida namoyon etishi lozim.

Strategiyani ishlab chiqarish jarayonidan oldin firmaning atrofidagi muhitning iqtisodiy, siyosiy, jug’rofiy, demografik, ijtimoiy va boshqa sohalar bo’yicha umumiy holati ssenariysi tuzib chiqiladi. Chunki firmalar nimani sotib olishi va uni qayerdan xarid qilishi mazkur sohalarning xususiyati va holatiga bog’liq.

Strategik boshqarish bir qator bosqichlarga ega:

1) joriy va kelgusi vaziyatni tahlil qilish, modellashtirish;
2) firma faoliyatida o’zgarishlar qilish zarurligini aniqlash;
3) o’zgarishlar strategiyasini ishlab chiqish;
4) ushbu strategiyani amalga oshirish uchun ishonchli usullarni ishlab chiqish va qo’llash;
5) strategiyani hayotga tadbiq etish. Biznesni rivojlantirish strategiyasi firma menejmentining ajralmas qismi hisoblanib, u firma faoliyatining xususiyatini belgilab beradi.

Ushbu boshqaruv turining ruhiy jihati o’zining muayyan vaqt oraliqlarida erishiladigan real natijalarga yo’naltirilganligi bilan muhim. Shuning uchun bunday boshqaruvni kunlar bo’yicha boshqarish sifatida qabul qilish mumkin.

Boshqaruvning umumiy tamoyillari turli tarmoqqa qarashli ob’ektlarni boshqarishda amal qilinadigan qoidalar, ya’ni ular boshqaruvning barcha tizimlariga xosdir, shuning uchun biz ularni umumiy tamoyillar deb nomladik. “Maqsadni qo’yish” funksiyasini shakllantirish va amalga oshirish tamoyillari. Ushbu funksiyaning mohiyati boshqaruv ob’ektining muayyan vaqt oralig’idagi (yil, chorak, oy va h.k.) o’z faoliyatini tavsiflovchi miqdoriy va sifatiy ko’rsatkichlar yig’indisi shaklida faoliyat ko’rsatishi modelini ishlab chiqishdan iborat.

Prognoz qilish – bu boshqarilayotgan ob’ekt rivojlanishining ob’ektiv ehtimol tutilgan tendensiyalarini, holatlarini, ushbu rivojlanishning muqobil yo’llarini va ularni amalga oshirish muddatlarini aniqlash va oldindan ko’ra bilish jarayoni.

Modellashtirish – real ob’ektlar, hodisalar va jarayonlarni turli xildagi nazariy sxemalar va belgilar shaklida qayta tasvirlash, ularning eng muhim xususiyatlarini aks ettiruvchi o’xshashliklarni yaratish jarayoni. Dasturlashtirish – yagona (bir) maqsadga belgilangan muddatlarda erishish bo’yicha bu uchun zarur bo’lgan resurslar bilan ta’minlanadigan tadbirlar majmuini ishlab chiqish.

Direktivlik – ishlab chiqilgan rejalarga amal qilish majburiyati, bu sub’ektlarning hamkorlik, birgalikdagi faoliyat to’g’risidagi shartnomaviy munosabatlari yoki davlatning tegishli qonunchilik hujjatlari bilan belgilab berilgan.

Muvozanatlashganlik – rejalashtirishning eng muhim tamoyili bo’lib, uning mohiyati barcha ulushlar va nisbatlar, parametrlar, ko’rsatkichlar, rejalar va ularni bajarish natijalarining muvazanatida o’z aksini topadi.

Ixtisoslashuv. Mazkur qoida mehnat taqsimotining xususiyati o’rtasida, boshqaruv xodimlari va boshqaruvning samaradorligi o’rtasida ob’ektiv mavjud bo’lgan bog’liqlikni ta’kidlaydi.

Proporsionallik. Boshqaruv tizimlari faoliyat ko’rsatishining uyg’unligi ular alohida qismlari, kichik tizimlarining qanchalik o’zaro muvofiqliligiga bog’liq.

Ritmiklik. Ushbu qoidaning mohiyati shundan iboratki, boshqaruv funksiyalarini amalga oshirishning belgilangan tartibiga qat’iy amal qilinishi, mazkur jarayonning o’zi esa uzluksizligi va o’z vaqtidaligi bilan tavsiflanishi darkor.

Aniqlik. Agar boshqaruvni axborotni to’plash va unga ishlov berish jarayoni sifatida ko’rib chiqadigan bo’lsak, u holda boshqaruv faoliyatining samaradorligi ko’p jihatdan axborot oqimlari o’tishining yo’liga bog’liq bo’ladi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki keltirilgan mulohazalar soha mutaxassislariga kerakli ma’lumotlarni bera oladi degan fikrdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Основы менеджмента: учебное пособие. / Л.В. Плахо ва, Т.М. Анурина, С.А. Легостае ва и др.- М.: КНОРУС, 2009.
2. О.С. Виханский Стратегическое управление / М., Гардики, 2002.
3. Р.С. Галькович, В.И. Набоков Менеджмент / Пермь, 2002.
4. Н.Қ.Йўлдошев, О.С.Қозоқов Менежмент / Т, “Фан” 2004.
5. Н.Қ. Йўлдошев, М.Р. Болтабоев, О.Қ. Рихсимбоев, Б.О. Ғаниев Стратегик менежмент / ТДИУ 2003.